

OKSIMORONLAR KONTAMINATSIYA NAMOYON BO‘LISHINING BIR TURI SIFATIDA

Pardayev Zafar,

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
pzafar441@gmail.com*

Qilichboyeva Xurshida,

*Samarqand davlat pedagogika unstituti,
mustaqil izlanuvchi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18782176>

Annotatsiya. Maqola zamonaviy lingvistik semantika, xususan, so‘nggi paytlarda keng tarqalgan kontseptual integratsiya nazariyasiga bag‘ishlangan. Mazkur maqolada oksimoron hodisasi kontaminatsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida kognitiv-semantik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompozitsion semantika va konseptual integratsiya nazariyalari asosida oksimoronlarning ma‘no hosil qilish mexanizmi ochib beriladi. Oksimoron tarkibidagi o‘zaro zid semantik komponentlar birikishi natijasida yuzaga keladigan yangi gibrid ma‘no intensional va implikatsional qatlamlar orqali izohlanadi. Shuningdek, badiiy matnlarda oksimoronlarning stilistik, emotsional-ekspressiv va baholovchi funksiyalari misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida oksimoronlar lingvokreativ jarayon mahsuli sifatida til tizimida muhim o‘rin egallashi hamda kontaminatsiya jarayonining semantik modelini namoyon etishi ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu yo‘nalishning zamonaviy kognitiv tadqiqotlardagi ahamiyati ko‘rsatilgan, shuningdek, ushbu nuqtai nazardan tilning turli darajalarida oksimoronlarni tahlil qilishga urinish qilingan.

Kalit so‘zlar: kompozitsion semantika, kontaminatsiya, oksimoron, kognitiv lingvistika, konseptual integratsiya, lingvokreativlik, intensional ma‘no, implikatsional ma‘no.

Аннотация. Статья посвящена проблемам современной лингвистической семантики, в частности теории концептуальной интеграции, которая в последние годы получила широкое распространение. В статье феномен оксиморона рассматривается как специфическая форма контаминации с когнитивно-семантической точки зрения. На основе теорий композиционной семантики и концептуальной интеграции раскрывается механизм формирования значения оксиморон. Новое гибридное значение, возникающее в результате сочетания семантически противоположных компонентов в составе оксиморона, объясняется через интенциональные и импликациональные смысловые слои. Кроме того, на примерах показаны стилистические, эмоционально-экспрессивные и оценочные функции оксиморон в художественных текстах. В результате исследования научно обосновано, что оксимороны, являясь продуктом лингвокреативного процесса, занимают важное место в языковой системе и репрезентируют семантическую модель контаминации. Показана значимость данного направления для современных когнитивных исследований, а также предпринята попытка анализа оксиморон на различных уровнях языка с данной точки зрения.

Ключевые слова: композиционная семантика, контаминация, оксиморон, когнитивная лингвистика, концептуальная интеграция, лингвокреативность, интенциональное значение, импликациональное значение.

Abstract. The article addresses issues of modern linguistic semantics, particularly the theory of conceptual integration, which has gained wide recognition in recent years. In this study, the phenomenon of oxymoron is analyzed from a cognitive-semantic perspective as a specific manifestation of contamination. Based on the theories of compositional semantics and conceptual integration, the mechanisms of meaning construction in oxymorons are revealed. The new hybrid meaning that emerges

from the combination of semantically contradictory components within an oxymoron is explained through intensional and implicational semantic layers. In addition, the stylistic, emotional-expressive, and evaluative functions of oxymorons in literary texts are demonstrated through illustrative examples. The research findings substantiate that oxymorons, as products of linguocreative processes, occupy an important place in the language system and represent the semantic model of contamination. The relevance of this approach to contemporary cognitive research is highlighted, and an attempt is made to analyze oxymorons at different levels of language from this perspective.

Keywords: *compositional semantics, contamination, oxymoron, cognitive linguistics, conceptual integration, linguocreativity, intensional meaning, implicational meaning.*

Kirish. Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklar ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma sifatida, psixologik, kognitiv-semantik va lingvomadaniy g'oyalarni aks ettiruvchi fenomen sifatida o'rganiladi. An'anaviy tilshunoslikda til birliklari, shu jumladan, frazeologik birliklar, asosan, tilning xususiyatlari asosida tahlil qilingan. Frazeologizmlar transformatsiyasi va ularning yangilanishi, nafaqat ma'lum uslubiy mahsuldorlik manbai sifatida, balki yangi frazeologik birliklarni shakllantirish omili sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv paradigma til hodisalarini inson tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga yo'naltirilgan. Til birliklarining ma'no hosil qilish mexanizmini tushuntirishda kompozitsion semantika va konseptual integratsiya nazariyalari muhim o'rin tutadi. Oksimoron esa o'zaro zid tushunchalarning birikishi orqali yangi semantik struktura hosil qiluvchi hodisa sifatida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi oksimoronlarni kontaminatsiya hodisasi bilan bog'liq holda tizimli ravishda tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Okkazional frazeologizmlar (va boshqa okkazional birliklar kabi) til inventariga kirmaydi, til egalarining nutqiy tajribasida avvalgi analogga ega emas, ko'pchilik odamlarda og'zaki yoki yozma nutqda muntazam ravishda ishlatilmaydi. Shunga qaramay, okkazional birliklar til birliklari bilan birga turli diskurslarda namoyon bo'ladi. Bunday noodatiy ifoda okkazional frazeologizmlar nutq birliklariga aylanadi. Ular til fakti emas, balki nutq hodisasi hisoblanadi va shu bois nutqqa xos belgisiga ega bo'ladi. Lisoniy frazeologizmlar jamiyat a'zolari tomonidan tushunarli bo'lgan an'anaviy birlik sifatida zamonaviy frazeologiyaning korpusini tashkil etadi va frazeologik lug'atlarga kiritilgan bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Oksimoron va kontaminatsiya hodisalari tilshunoslikda turli nazariy yo'nalishlar doirasida tadqiq etilgan. Xususan, R. Qo'ng'urov oksimoronning uslubiy va tasviriy imkoniyatlarini yoritib, uning badiiy nutqdagi funksional xususiyatlarini asoslab bergan. Shuningdek, A. Mamatov va B. Yo'ldoshevlarning frazeologiya hamda uslubiyatga oid tadqiqotlarida frazeologik birliklarning transformatsiyasi va pragmatik imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy kognitiv lingvistika vakillari, jumladan, Boris Norman tomonidan ilgari surilgan kompozitsion semantika yondashuvi esa murakkab ma'no hosil bo'lish mexanizmlarini izohlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kompozitsion semantika va konseptual integratsiya nazariyalariga tayangan holda kognitiv-semantik tahlil usuli qo'llanildi. Oksimoron birliklarining ma'no tuzilmasi intensional va implikatsional qatlamlar asosida izohlandi hamda ularning badiiy matndagi funksional-pragmatik xususiyatlari kontekstual tahlil yordamida ochib berildi. Shuningdek, tavsifiy, qiyosiy va interpretativ metodlardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Okkazional frazeologik birliklarning (OFB) yuzaga kelishi kontaminatsiyaga uchragan frazeologizmlarda ro'y beradigan semantik va struktura (tuzilish) o'zgarishlari jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Yaratilayotgan yangi frazeologik birliklarning turi birlashtirish (kontaminatsiyalash) jarayonining xarakteri, ya'ni kontaminatsiya turiga qarab belgilanadi. Kontaminatsiya jarayoni uchun til frazeologik birliklarining grammatik va semantik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda kognitiv paradigma boshqa ilmiy yo'nalishlar qatorida mustahkam o'rin egalladi. U muayyan ma'lum bo'lgan til faktlarini yangi nuqtai nazardan ko'rishga imkon beradi, chunki kognitiv lingvistika tilni tushunish jarayoniga, til va uning birliklari ongimizda qanday ifodalanganiga to'g'ridan-to'g'ri taalluqli. Lisoniy konseptuallashuvning komparativ jihatlari ham hozirgi paytda juda dolzarb hisoblanadi. Kognitiv lingvistikaning inson tomonidan dunyoni kategoriyalash va kontseptualizatsiya qilish hodisalarini talqin qilishdagi yutuqlari sezilarli, prototipik va freymli semantika metodikalari ancha yaxshi ishlab chiqilgan. Umuman olganda, "zamonaviy kognitiv lingvistika yo'nalishlari, xususan, konseptual integratsiya va kompozitsion semantika nazariyalari, nafaqat madaniyatning asosiy konseptlar doirasida turli mental qatlamlarning birlashishi va kesishishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradigan samarali tushunchalarni taqdim etadi, balki turli tillarning kontseptual makonlarini taqqoslash imkonini ham yaratadi" [1.76]. Biz mazkur maqolada diqqatni kompozitsion semantika muammosiga qaratamiz, chunki bizning fikrimizcha, u zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda yetarlicha yoritilmagan.

Kompozitsion semantika – bu tilshunoslikdagi yangi yo'nalish bo'lib, u tilning murakkab belgilarini, alohida birlikning umumiy ma'no tarkibidagi o'rnini, bir-biri bilan uyg'unlashadigan birliklar semantikasi o'zaro qanday bog'liqligini o'rganadi. Ushbu yo'nalish so'zning semantik tuzilmasiga, shuningdek, leksik guruhlar (sinonimlar, antonimlar, giponimlar va gipernimlar)ning til tizimidagi o'rniga yangi nazar bilan qarash imkonini beradi [2.275]. Albatta shu o'rinda kognitiv bilimlar paradigmasida kompozitsionlik nima ahamiyat kasb etadi? degan savol tug'ilishi tabiiy. Murakkab ifodaning kompozitsionligi – bu semantik asos hisoblansada, ifodaning to'liq ma'nosi pragmatik omillar, jumladan, kontekst va so'zlovchilarning fon bilimlari ta'sirida namoyon bo'ladi. Demak, til doim dinamik, faol bo'lib, diskursiv faoliyat davomida yaratiladigan til shaxslarining mental bilimlari rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan neologiyalar bilan bog'liq. Til doimiy ravishda o'zgarib, yangi shakllar, so'z birikmalari

va ifodalar yaratilib, rivojlanib boruvchi kognitiv jarayon hisoblanadi hamda har bir xalq milliy madaniyatini o'zida aks ettiruvchi o'ziga xos asosiy vositadir. Darhaqiqat, til o'sha xalq yashayotgan joyning tabiati, yashash tarzi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odatini o'zida aks ettirib, to'plab, avloddan-avlodga yetkazib beruvchi milliy-madaniy semantik ko'zgu hisoblanadi.

Milliy madaniy semantika tilning hamma qatlamlarida: leksikasida ham, grammatikasida ham, hatto fonetikasida ham mavjud. Ammo milliy-madaniy semantika tilning harakatdagi birliklarida juda ham aniq namoyon bo'ladi. Har bir tilda shu til egasi bo'lgan millat ruhiyati yorqin ifodasini topadi. Til nafaqat muloqot va ta'sir etish vositasi, balki aksiologik madaniyatni o'zlashtirish, madaniy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qabul qilish, saqlash va uzatish vositasidir. Shuning uchun ham lisoniy mentalitetning eng muhim xususiyatlaridan biri – uning etnospesifikligidir. Shu sababli, kompozitsionlik kengroq talqin qilinadi va turli kognitiv tuzilmalarni integratsiya qilish tamoyiliga bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, til ma'nosini qurish faqatgina boshlang'ich komponentlarning xususiyatlarini oddiy yig'indisi emas; bu ko'proq tuzilmaviy, semantik, pragmatik va boshqa omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir bo'lib, ularning orqasida chuqur kognitiv jarayonlar yotadi. Lingvokreativlik orqali yangi so'zlar, iboralar va butunlay yangi til birliklari yaratiladi. Shunday lingvokreativ jarayonlardan biri – kontaminatsiya bo'lib, u so'z va frazalarning qisman birlashuvi natijasida yangi lingvistik birliklarning paydo bo'lishini anglatadi. Kontaminatsiya nafaqat yangi so'zlar yaratishda, balki tilga o'yin, hazil va kreativlikni olib kirishda ham muhim vositadir. Kontaminatsiyaning alohida usuli sifatida oksimoronlar ham muhim stilistik ahamiyatga ega. Badiiy matnda ma'lum bir voqea hodisa yoki biror shaxs xarakter-xususiyatini obrazli tarzda ifodalashda oksimaronlardan keng foydalaniladi.

Oksimoron tilshunoslikda ham adabiyotshunoslikda ham birday qo'llanuvchi uslubiy vosita hisoblanadi. Professor R.Qo'ng'urov oksimoron hodisasining mohiyati, funksional-stilistik xususiyatlari haqida gapirar ekan, uning nutqda qo'llanish sabablarini quyidagicha izohlagan edi: "Og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda biror voqea yoki hodisani tasvirlashda ma'no tomondan bir-birlariga tamoman zid bo'lgan so'zlar birlashtiriladi. Yuzaki qaraganda bu so'zlarni birlikda qo'llash mumkin emas. Lekin shoir yoki yozuvchi, notiq shu ikki qarama-qarshi ma'noli so'zlar birikmasidan yangi bir ma'no keltirib chiqaradi. Bunday hodisa tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid adabiyotlarda oksimoronlar deyiladi. Tirik murda, vijdonli o'g'ri, pessimistik optimist, achchiq shodlik kabi birikmalar oksimoronlarga yorqin misol bo'la oladi" [4.86]. Oksimoronda ikki kontrast, ya'ni ma'nosi bir-biriga zid bo'lgan so'zlarning birlashishidan tashkil topgan bo'lib, ular belgilovchi (keng ma'noda) munosabatlar bilan bog'langan holda mantiqan mos kelmaydigan tushunchalar birlashuvi natijasida yangi murakkab tushuncha yoki tasavvur yuzaga keladi. Shuni aytish kerakki, mantiqan o'zaro zid tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning o'zaro qo'shilib kelishi oksimoronni antitezaga yaqinlashtirsa-da, ular orasida

farq bor. Ma'lumki, antiteza "qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, obrazlarni qarama-qarshi qo'yishdan iborat stilistik figura" bo'lib, unda "ikki qarama-qarshi qutb biri ikkinchisini inkor qiladi. Oksimoronda esa ikki qarama-qarshi ma'noli so'z bir-biriga birlashtiriladi. Biri ikkinchisiga nisbatan aniqlovchi sifatida qo'llanadi" [4.87]. Badiiy matnlarda bunday so'z-oksimoronlar tasviriy-ta'riflovchi va qo'shimcha ravishda emotsional-baholovchi funksiyalarni bajaradi; ommaviy-publitsistik matnlarda esa oksimoronlarda ko'proq emotsional-baholovchi semantika ustunlik qiladi. Demak, oksimoronlarda o'zgacha gibril ma'no yaratiladi: u birinchi so'zning ichki mazmuni, ya'ni unga bog'liq tushunchaning mohiyati bilan ikkinchi so'zdan olingan unga xos bo'lmagan kontekstual yoki yashirin ma'no, odatda u anglatadigan narsaga hamroh bo'lgan ma'nolar birlashtiriladi. Eslatib o'tamiz, intensional (so'zning ichki mazmuni, ya'ni unga bog'liq tushunchaning mohiyati) va implikatsional (so'z bilan bog'liq bo'lgan kontekstual yoki yashirin ma'no, odatda u anglatadigan narsaga hamroh bo'lgan ma'nolar) leksik ma'noning tuzilishida ajratiladigan ikkita qismdir; bunda intensional – leksik ma'noning mazmuniy yadrosi, implikatsional esa ushbu yadroni o'rab turuvchi semantik belgilar periferiyasidir.

Muloqot faoliyatida oksimoronlardan foydalanishda mohiyatan qarama-qarshi bo'lgan tushunchalar, obrazlarni yonma-yon qo'llash, murakkab ruhiy holatlarni tasvirlash orqali ta'sirchanlik oshiriladi. Tilimizdagi tirik murda, yoqimsiz go'zallik, issiq qor kabi noodatiy birikmalar shular jumlasidandir. Oksimoronlar tuzilishiga ko'ra ikki komponentli yoki murakkab ko'rinishda bo'lishi mumkin. Murakkablashgan oksimoron tarkibidagi komponentlar o'zaro bog'lovchilar yoki ohang yordamida bog'lanadi. Ayrim hollarda oksimoronli birikmalar orasida boshqa so'zlar ham qo'llanishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ham oksimoronli birikma o'z ma'nosini saqlab qoladi. Murakkablashgan oksimoronlar tilshunoslikda sinekiozis, snetsiozis deb ham yuritiladi [3.381]. Oksimoronli birikmalar fikrlar ta'sirchanligini oshirish, obrazlilik hosil qilishdan tashqari baholash vazifasini ham bajaradi. Oksimoronlarning badiiy asar tilida qo'llanilishi badiiy uslubning o'ziga xos xarakterli belgilaridan hisoblanadi. Oksimoronlar personajlarning turli ruhiy holatlarini tavsiflashda hamda ularga muallif munosabatini ko'rsatib berishda qulay vositadir. Yozuvchi Tohir Malik "Shaytanat" asarida Zaynab obrazini ta'riflar ekan, oksimorondan foydalanadi. Manzura tilidan Zaynabga nisbatan "tirik murda" oksimoronining qo'llanilishi obrazli bahoni yuzaga keltirgan: Xudo qizidan omonatini olmadi. Lekin uni tirik murgaga aylantirib qo'ymadimikin? (Tohir Malik. Shaytanat).

Tilda frazeologik birliklarni o'zgartirishning bir usulini – frazeologizmlarning qo'llash vosita va usullarini semantik-pragmatik tadqiq etish alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi. Frazeologiyada transformatsiya jarayonlarini tizimli o'rganish zarurati, bu jarayonlar frazeologik tizimning dinamik holatini va tilning rivojlanishini ta'minlaydi.

Frazeologik birliklarni okkazional tarzda o'zgartirish usullarining xususiyatlarini (shartlarini, mexanizmlarini, natijalarini) tasvirlash, bir tomondan, okkazional frazeologizmlarning ekspressiv belgi sifatida pragmatik imkoniyatlarini aniqlashga

yordam beradi, chunki ular yorqin ifoda vositasi hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, bu jarayon til egalarining kreativ nutq yaratuvchi qobiliyatlarini, ya'ni o'z fikrlarini eng aniq va to'liq ifodalashga intilayotgan til foydalanuvchilarining qobiliyatlarini ko'rsatadi. Bu orqali ular atrof-muhit hodisalariga nisbatan baho va ekspressivlikni maksimal darajada aks ettiradilar.

Yuqoridagi misolda ham bir-biriga zid qutbli ikki tushuncha to'qnashadi: tirik – yashayotgan, hayot, murda – inson (yoki hayvon)ning o'lgan jasadi. Natijada mantiqsiz birikma – tirik murda, ya'ni “tirik o'lik inson” hosil bo'ladi. Bu o'rinda muallif personajning tushunib bo'lmaydigan, murakkab tabiati haqida ma'lumot berishni istaydi. So'z ustalari oksimoronlarni ma'lum bir holat, personajlar xarakter-xususiyatlarining murakkabligi, ziddiyatligini ko'rsatish maqsadida ishlatadilar. Bunday noodatiy birikmalarning ma'nosi qiziqarli ko'rinadi: tirik murda – bu hayot va o'lim orasidagi chegarada turgan inson yoki hayotga chuqur befarq munosabatda bo'lgan kishi. Yoki, nihoyat, tirik murda – fiziologik jihatdan sog'lom bo'lishi mumkin bo'lgan, hayot uchun muhim a'zolari ishlayotgan, ammo hissiy, ma'naviy jihatdan ezilgan; o'ziga, atrofdagilarga va uning atrofida ro'y berayotgan voqealarga befarq inson. Demak, tirik murda so'z birikmasining semantikasini struktural tahlil qilsak, ko'ramizki, uning ma'nosini anglash uchun “tirik” so'zining intensionali (hayotga ega bo'lish) va “murda” so'zining implikatsionali (o'likka o'xshashligi) ajratiladi. Til me'yorlari nuqtai nazaridan bu nutqiy xato – mantiqiylik va aniq ifoda buzilgan. Ammo aslida, biz bilamizki, keng ma'noda oksimoron – bu stilistik jihatdan muhim, pragmatik asoslangan, ma'noda bir-biriga zid bo'lgan til elementlarining birikmasi bo'lib, u ritorik ahamiyatga ega. Ya'ni, gapiruvchi, nutq manbai, qisqa va ixcham shaklda maksimal ma'lumotni etkazish uchun ushbu usuldan foydalanadi va shu bilan birga unga nisbatan subyektiv munosabatini ifoda etadi. Ko'rinadiki, oksimoronning badiiy asar tilida qo'llanilishi nafaqat munosabat ifodalash yoki baholashni, balki obrazlilik va tejankorlikni ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Oksimoron o'z mohiyatiga ko'ra kognitiv hodisa hisoblanadi. So'zlovchi yoki yozuvchi noodatiy birikmani qo'llashda dastlab so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Shu tarzda kommunikativ maqsadning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi yangi ma'no hosil bo'ladi. Bunda oksimoronning nutqiy vaziyat uchun mosligi, anglatgan ma'no nozikliklari, qanday uslubiy vazifa bajarishi kabilar hisobga olinadi.

Oksimoronga xos xususiyatlar poetik matnlarda yorqinroq namoyon bo'ladi. Ba'zida, ifodaning ironik ohangi oksimoronli so'z birikmasi yoki turli stilistik va ma'nodagi so'zlarning to'qnashuvi orqali yanada kuchayadi. Masalan, shoir Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonidagi Stalinning ziddiyatli shaxs sifatidagi ijobiy va salbiy xarakter-xususiyatlari oksimoronlar vositasida quyidagicha ochib berilgan: U – yorug' dunyoda / Tengi yo'q inson / Qadr don begona / Yovuz mehribon // O'sha mushtipardan so'rash lozim bu / Buyuk inson / Buyuk jallod haqida.

She'ning keyingi misralarida Stalinga xos xususiyatlarni qarama-qarshi qo'yib tasvirlash orqali obraz tasviri mukammalasha boradi: Uning butun umri / Jumboqdan iborat / U ayni adolat / U ayni g'orat / U oqil buzg'unchi / U mohir me'mor – Inson suyagidan solgan imorat... // U xalqlar qotili / Xalqlar otasi / Tilim tebranmaydi / Yomon deyishga / U shunday ulug'ki / Yo'qdir qiyosi / Qancha ulug' bo'lsa / Tubandir shuncha.

She'r oxirida muallif o'z fikrlarini umumlashtirib, nutq yo'naltirilgan obyekt Stalinga bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalashda ham noodatiy birikmalardan foydalanadi: U bir bag'ri daryo / Bir bag'ri toshdir / U bir quyosh / Ammo – Qora quyoshdir. (Muhammad Yusuf. Qora quyosh).

Bu o'rinda birikma tarkibidagi quyosh so'zi Stalinning daho sifatida mamlakat siyosiy hayotida tutgan mavqeini ko'rsatayotgan bo'lsa, qora leksemasi uning zulm o'tkazish, qatag'on qilishga asoslangan faoliyatiga ishora qilmoqda. Bu ikki so'z qo'shilishidan hosil bo'lgan qora quyosh oksimoroni ziddiyatli shaxs degan tushunchani obrazli tarzda ifodalay olgan.

Tilimizda bu kabi individual xarakterga ega bo'lgan oksimoronlar ko'p bo'lib, ular emotsional-ekspressivlikni ta'minlash, obrazlilik hosil qilish vositasi sifatida badiiy uslubda faol qo'llaniladi. Tadqiqot natijasida oksimoronlar kontaminatsiyaning semantik ko'rinishi sifatida talqin qilinishi mumkinligi aniqlandi. Ular qarama-qarshi tushunchalarning integratsiyasi orqali yangi murakkab ma'no hosil qiladi. Kelgusida oksimoronlarning diskursiv va pragmatik xususiyatlarini kengroq material asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, okkazonal frazeologik variantlar (OFV) – bu til frazeologizmlarining nutqda ishlatiladigan, lekin me'yoriy lug'atlarda qayd etilmagan variantlari bo'lib, til egalarining ayrimlari tomonidan muayyan kommunikativ maqsadlarda til frazeologik birliklarini transformatsiya qilish yo'li bilan yaratiladi. Ular umuman olganda frazeologik invariant bilan semantik o'xshashlik doirasidan chiqmaydi, biroq kontekstual ma'no qo'shimchalari, shuningdek, komponent tarkibining qisman o'zgarishi bilan ajralib turadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, okkazonal frazeologizmlar – bu nutqda faoliyat ko'rsatuvchi, ammo milliy leksikonga kirmaydigan, me'yoriy lug'atlarda qayd etilmagan birliklar bo'lib, ular til egalarining ayrimlari tomonidan muayyan maqsadlarda til frazeologik birliklarining chuqur o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Ular semantik va tuzilishi (komponent tarkibi) jihatidan frazeologik invariantlardan sezilarli darajada farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Геяева А.И. Человек как объект номинации в языковой картине мира: Дис. ... д-ра филол. наук. – КБГУ: Нальчик, 2002. – С. 76.
2. Norman, Boris Ju. (2019). Syntactics, Cognition and Compositional Semantics. Russian Journal of Linguistics, 23 (3), 714–730. doi: 10.22363/2312-9182-2019-23-3-714-730. 725-bet).
3. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону: “Феникс”, 2008, – С.381.

4. Қўнғуров Р.Қ. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.378.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. д-ри. дис. ... автореф. – Тошкент, 1966. – Б.46.
6. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. дис. ... автореф. – Тошкент, 1993. – Б.47.
7. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри. дис. ... автореф. – Тошкент, 2000. – Б.56.
8. Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2002. – Б.37.
9. Йўлдошев Б., Рашидова У. Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси. – Тошкент: Наврўз, 2016. – Б.198.
10. Маматов А.Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – Б.274.

